

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

DOI 2023

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal



«Smart-turizm: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH ISTIQBOLLARI»

Respublika ilmiy-amaliy anjumani

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
ILMIY MAQOLA VA TEZISLAR TO'PLAMI

2023-yil 15-dekabr, maxsus son

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 540 sahifa, 15-dekabr, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., TDU rektori

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dotsent

Djumaniyazov Maqsud Allanzarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javoxir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyea Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeza Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi PKQTUMOTMXHB mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

UO'K: 338.48 (075)

KBK: 65.433(011)

“Smart-turizm: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI”. Respublika ilmiy-amaliy anjumani materiallari to‘plami. – T.: “YalT” jurnali, 2023. – 540-b.

To‘plamga xorijiy va mahalliy olimlar, sohaning yetuk mutaxassislari va oliy o‘quv yurtlarida turizm sohasidagi muammolar bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borayotgan doktorantlar, tadqiqotchilar, vazirlik, qo‘mita va turli mulkchilik shaklidagi korxona, tashkilotlarning yetakchi mutaxassislari, magistrnlarning ilmiy izlanishlarining natijalari kiritilgan.

To‘plamda keltirilgan materiallarning mazmuni, undagi statistik ma‘lumotlar va keltirilgan huquqiy-me‘yoriy hujjatlarning haqqoniyligi, tadqiqiy fikr-mulohazalar va takliflarga mualliflarning o‘zlari mas‘uldirlar.

Mas‘ul muharrir: t.f.d., prof. K.A. Sharipov

Konferensiya tahrir hay‘ati: i.f.d., prof. M.P.Eshov, i.f.d., prof. G.Q.Abduraxmanova, i.f.d., prof. S.K.Xudoyqulov, i.f.d., prof. M.A.Yuldashev, i.f.d., prof. A.M.Abduvohidov, i.f.d., prof.M.T.Aliyeva, i.f.d., prof. A.A.Eshtayev, i.f.d., prof.A.N.Norchayev, i.f.n.,prof. S.R.Safayeva, i.f.n., dots. D.I.Abidova, i.f.n., dots. X.Ochilova,i.f.n., dots. M.Nurfayziyeva.

Taqrizchilar:

Sh. Ergashxodjayeva, i.f.d., prof.

U. G‘afurov, i.f.d., prof.

Ushbu Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida o‘tkazilayotgan «Smart-turizm: XORIJIY TAJRIBA VA UNI O‘ZBEKISTONDA QO‘LLASH ISTIQBOLLARI» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman to‘plami O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tomonidan nashrga tavsiya etilgan.

ISBN 978-9943-6856-0-4



MARKETING STRATEGIYALARINI QO'LLASH ORQALI MAMLAKAT TURIZM BOZORINI RIVOJLANITIRISH ISTIQBOLLARI

Nurfayzieva Moxinur Zayniddinovna
Phd, TDIU Turizm kafedrası dotsenti

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizmning iqtisodiyotdagi rolini oshirish hamda turistik marketing sohasi qamrab olgan chora-tadbirlarni mamlakat turizm bozorida barqaror rivojlanishni ta'minlash maqsadida amalga tadbiq etish usullari yoritilgan. Shuningdek, O'zbekiston turizm bozorining ma'lum tarmog'ida yuzaga kelgan muvozanatsizlik tahlili ko'rib chiqilib ularni bartaraf etish ya'ni maqsadli auditoriyani topish, uni kengaytirish hamda turizm sanoatida iste'molchilarni jalb qilish va ularning talab darajasida ehtiyojlarini qondirishda marketing strategiyalaridan maqsadli foydalanish samarasi ochib berilgan.

Kalit so'zlar: marketing strategiyasi, turistik marketing, turizm bozori, tashrif maqsadlari, sayyohlar, turistik xizmatlar, maqsadli auditoriya.

Abstract: This article describes ways to increase the role of tourism in the economy and to implement the measures covered by the field of tourism marketing in order to ensure sustainable development in the country's tourism market. In addition, the analysis of the imbalances that have occurred in a certain sector of the tourism market of Uzbekistan is considered and their elimination, that is, finding the target audience, expanding it, and attracting consumers in the tourism industry and meeting their needs at the level of demand from marketing strategies. the effect of use is revealed.

Key words: marketing strategy, tourist marketing, tourism market, visit goals, tourists, tourist services, target audience.

Аннотация: В данной статье описаны пути повышения роли туризма в экономике и реализации мер, охватываемых сферой туристического маркетинга, с целью обеспечения устойчивого развития туристического рынка страны. Кроме того, рассматривается анализ дисбалансов, возникших в определенном секторе туристического рынка Узбекистана, и их устранение, то есть поиск целевой аудитории, ее расширение, привлечение потребителей в туристическую отрасль и удовлетворение их потребностей на высоком уровне. уровень спроса на маркетинговые стратегии, выявлен эффект от их использования.

Ключевые слова: маркетинговая стратегия, туристический маркетинг, туристический рынок, цели посещения, туристы, туристические услуги, целевая аудитория.

KIRISH

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarda ham turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish, turizm xizmatlari bozori faoliyatini kengaytirish, hududiy sayyohlik tizimlarini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish maqsadi belgilangan bo'lib¹, unda Turizm, transport, axborot-kommunikatsiya, jumladan dasturiy ta'minotlar va boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSh dollariga yetkazish, belgilangan maqsadli rejalar asosida tanlab olingan hududlar, jumladan Samarqand, Xorazm, Buxoro, Navoy, Toshkent viloyati va Toshkent shahri, Qoraqalpog'iston Respublikasi Orol bo'yi hududida turizm industriyasini jadal rivojlantirish, iqtisodiyotda uning roli va ulushini oshirish, turistik xizmatlarni diversifikatsiya qilish va sifatini yaxshilash, turizm infratuzilmasini kengaytirish, to'siqsiz turizm infratuzilmasini mamlakatning asosiy turizm shaharlarida keng joriy qilish, 2026-yilgacha turizm sohasida band bo'lgan aholi sonini 2 baravar oshirib, 520 ming nafarga yetkazish kabi vazifalar belgilangan. Ushbu maqsadlarga

¹ "2022 — 2026-Yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>



erishish uchun bozor iqtisodiyotiga asoslangan marketing xizmatlari strategiyasini qo'llash muhim sanaladi.

Turizm bozorida muvozanatga erishishda tanlab olingan "O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling" dasturi doirasida mahalliy sayyohlar sonini 12 mln nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 mln nafarga yetkazish maqsadida belgilangan chora tadbirlarni aniqlash asosida ko'zlangan maqsadga erishish imkoni oshadi. Xususan, marketing strategiyasini aniqlash muhimligi qo'yilarda ko'rindi:

- Xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish,
- Yangi turizm yo'nalishlari va mahsulotlarini taqdim qilish,
- Hududlarning turizm salohiyatiga oid targ'ibot materiallarini tayyorlagan holda ommaviy axborot vositalarida yoritish va infoturlar tashkil qilish,
- Nomavsumiy oylarda chegirmalar taqdim etgan holda "Ichki turizm oyligi"ni tashkil qilish hamda "Ichki turizm haftaligi", "Ichki turizm kunlari" dasturlarini madaniy, ko'ngilochar, milliy hamda diniy bayramlar, katta sport tadbirlari doirasida amalga oshirish.
- Hududlar kesimida ichki turizm oqimini tashkil qilishga oid asosiy prognoz ko'rsatkichlarini tasdiqlash.
- Mehnat jamoalari orasida mamlakat bo'ylab sayohatlarni rag'batlantiruvchi turizm xizmatlarini taqdim etish.
- Mehmonxona, umumiy ovqatlanish punktlari, madaniy ko'ngilochar obyektlar, Turizm va sport vazirligi, "Uzbekistan Airways" AJ va "O'zbekiston temir yo'llari" AJ ixtiyoriy chegirmalar qilish.
- Tadbirkorlik subyektlari orasida to'siqsiz turizm va uning afzalliklari yuzasidan tushuntirish ishlarini UNWTO bilan hamkorlikda tashkil qilish kabi chora-tadbirlarni aniq belgilash orqali mamlakat iqtisodiyotida muhim o'rin tutadigan turizm bozorida marketing strategiyasi qanchalik muhim ekanini bilish mumkin.

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda turizm xizmatlari bozori faoliyatini kengaytirish, hududiy sayyohlik tizimlari, jumladan turistik klasterlar, turizmga ixtisoslashgan erkin hududlar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish ob'ektiv ahamiyat kasb etgan masalalar qatoriga kirdi. Zero, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganlaridek: "Turizmni iqtisodiyotning strategik tarmog'iga aylantirish biz uchun ustuvor vazifa bo'lib qoladi"². Turizm xizmatlari bozori faoliyatini kengaytirishda hududiy sayyohlik tizimlari, jumladan turistik klasterlar va erkin turistik hududlar faoliyatini samarali tashkil etish uchun xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va atroflicha tahlil etish zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Belgilangan vaqtda va belgilangan joyda turistik mahsulot oldi-sotdi jarayonini ta'minlash uchun talab va taklifni birlashtiruvchi ijtimoiy-iqtisodiy hodisa – Turizm bozori hisoblanadi va unda oldi-sot-dining asosiy predmeti xizmatlar sanaladi. Turizm bozorida ham marketing tamoyillaridan keng foydalaniladi. Turistik marketing asosida nafaqat yirik kompaniya va tashkilotlar balki, davlat darajasida raqobat vujudga keltirish mumkin. Ular mamlakat brendini yaratish uchun turizm marketingidan foydalanishadi. Albatta, bu ko'proq sayyohlarning bir mamlakatni boshqasidan ko'ra tanlashiga olib keladi. Butun bir mamlakat uchun brend yaratish, albatta, bir nechta institutlarning hamkorligini va hukumatlar tomonidan ajratilgan budjetni talab qiladigan missiyadir. Bu potensial tashrif buyuruvchilar uchun mamlakatning brend imidjini yaratadigan ommaviy axborot vositalaridan boshlanadi, bu esa sayyohlarning mamlakatga tashrifi davomida boshdan kechiradigan eng mayda tafsilotlarigacha yoritib beruvchi vositadir.

Maqsadli auditoriyaga ega bo'lish uchun quyidagi jihatlariga e'tibor qaratish ko'zda tutiladi:

2 Shavkat Mirziyoyevning "Turizmni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalashtirish masalalari bo'yicha yig'ilish" maruzasidan. 2020-yil 28-yanvar. <https://uzreport.news/politics/shavkat-mirziyoyev-turizmni-rivojlantirish-jismoniy-tarbiya-va-sportni-yanada-ommalashtiri>



- Tadqiqot orqali mijozlar ehtiyojlarini to'liq o'rganish va shu asnosida xizmatlarni maksimal tashkillashtirish;
- Web-saytlar yaratish yoki mavjud tarmoqlar ustida ishlash orqali online xizmat ko'rsatishni takomillashtirish. Bunda mobilga alohida e'tibor qaratish, chunki ko'plab mijozlar bron qilish yoki sotib olish xizmatlarini mobil qurilmalari orqali amalga oshiradilar.
- Ijtimoiy tarmoqlarda doimiy faollik va video marketing uslubidan foydalanish orqali brand xabar-dorligini oshirish;
- E-mail marketing tizimidan samarali foydalanish va bu orqali potensial mijozlarni jalb qilish;
- Harakat samaradorligini oshirishda reklama ustida professional darajada ishlash. Bunda reklama matni va sarlavhasi e'tiborga loyiq va kreativ ekaniga ishonch hosil qilish.

Turistik marketing korxona faoliyat yuritayotgan bozor talablariga qanchalik mos kelishini doimiy tadqiq etishdir. Biroq, bunda turizm sohasida faoliyat yuritayotgan 56 turdan ortiq (restoran, mehmonxona tarmoqlari, sayohat bozorlari, transport tashkilotlari va boshqalar) tarmoqlarda marketing maqsadlari farqlarini hisobga olish lozim. Hozirda turizmning turli turlarini bilish maqsadli sayohatchilarni hisobga olgan holda biznes qurishga yordam beradi. Bu har bir sayohatchi uchun tajribani moslashtirishga undaydigan omildir. Turizm sanoatining keng tarqalgan tarmoqlari sifatida:

- Rekreatsion(dam olish) turizmi: oziq-ovqat, plyaj turizmi;
- Madaniy turizm: ekologik, qishloq, diniy, urush, sport, ochiq tabiat, ziyorat turizmi;
- Tibbiyot va biznes turizmlari.

Turizm boshqa sohalarga nisbatan tez taraqqiy etadigan tarmoqdir, chunki bu soha mamlakatimiz uchun unchalik katta investitsiyani talab qilmasdan rivojlanishi mumkin bo'lgan sohadir. Boshqa sohalar, jumladan, havo, temiryo'l avtomobil, ovqatlanish va savdo shahobchalari, mehmonxonalar rivoj topsa o'sha joyda turistik obyektlar mavjud bo'lsa bimalol turizm rivojlanishi mumkin.

Turizm sohasidagi mutaxassislarning fikricha, u XXI asrda dunyo miqyosida eng ustuvor foyda keltiruvchi sohaga aylanadi. Hozir u dunyo bo'yicha avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o'rinni egallab turibdi³.

AQShda XIX asrning oxirlarida vujudga kelgan marketing konsepsiyasi Yevropada o'tgan asrning 50-yillariga kelib, turizm sohasi professionallari tomonidan foydalanila boshlandi. Bu harakat mustaqil O'zbekiston tarixida 1992-yil 27-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan "O'zbekturizm" milliy kompaniyasi tashkil topishi bilan boshlandi. Kompaniyaning asosiy vazifasi turizm sohasida davlat siyosatini amalga oshirish va turizmni rivojlantirishning milliy modelini yaratishdan iborat edi.

Gap shundaki, marketing nuqtayi nazaridan, har bir bozor bir-biridan ta'bi, istaklari, ehtiyojlari bilan farq qiladigan va turistik xizmatlarning turli motivlaridan kelib chiqib, xarid qiladigan iste'molchilardan iborat. Shu sababli muvaffaqiyatli marketing faoliyatining amalga oshirilishi iste'molchilarning turli guruhlarining o'zlariga xos afzalliklarini hisobga olishni ko'zda tutadi. Aynan shu bozorni segmentlashning asosini tashkil etadi. O'zbekiston turizm sanoatida eng keng tarqalgan madaniy turizm bozori hisoblanadi. Turistik bozorni segmentlash — potensial xaridorlar talablarining sifatii va miqdoriy o'ziga xosliklariga mos ravishda turkumlash sifatida ta'riflanadi. Segmentlashning asosiy maqsadi — turistik mahsulotga yo'nalish berish bo'lib, u barcha iste'molchilarning talablariga javob bera olmaydi. Uning vositasida marketingning asosiy tamoyili — iste'molchiga mo'ljallanish amalga oshiriladi. Bunda turistik korxona o'z kuchlanishlarini to'rt tarafga tarqatmay, balki «asosiy zarba yo'nalishida» (u uchun eng istiqbolli bo'lgan bozor segmentlariga) markazlashtiradi. Shuning bilan savdo, reklama, sotuvlarni rag'batlantirishning boshqa shakl va uslublari qo'llanilish samaradorligining oshirilishiga olib keladi.

Eng keng tarqalgan turistik bozor mijozlarini undovchi motivlarga sayohat mahsulotlari va tavis-

3 Mirzayev M. A., Aliyeva M. T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.-T.: O'zbekiston faylasuflar jamiyati, 2011.

flanishi bo'yicha segmentlash kiradi. Turizm turlari ham sayohat mahsulotlariga qarab tavsiflanadi. Shunday jihatni inobatga olib sayohatlarning quyidagi asosiy maqsadlarini aniqlab olishimiz mumkin (1-rasm).



1-rasm: Tashrif buyuruvchi sayyohlarning maqsad turlari⁴

2021-yilda turizm sohasidagi asosiy ko'rsatkichlarni tahlil qiladigan bo'lsak, mamlakatga xorijiy turistlardan jami 1881,3 ming nafar sayyoh tashrif buyurgan bo'lib bu rejadaga nisbatan 181,3 ming nafar (10.7%) ko'pligini kuzatishimiz mumkin (1-jadval).

1-jadval: Turizm sohasidagi 2021-yildagi asosiy ko'rsatkichlari to'g'risida ma'lumot⁵

1	Xorijiy turistlar jami	reja	ming nafar	1700,0
		amalda		1881,3
		bajarilishi	foiz	110,7
1.2.	shundan safar maqsadlari bo'yicha:			ming nafar
	xizmat			60,7
	o'qish			6,4
	bo'sh vaqtni mazmunli o'tkazish, rekreatsiya va dam olish			155,1
	tanish va qarindoshlarni ziyorat qilish			1613,1
	tibbiyot, davolanish			32,4
	tijorat			13,6

Jadval ma'lumotlaridan anglaniladiki qarindoshlarni yo'qlash maqsadida turistlar oqimining eng kata qismini ko'rishimiz mumkin va buning asosiy sababi bizning malakatimiz ko'pmillatli bo'lgani uchun qardosh mamlakatlar jumladan, qo'shni davlatlardan keluvchi sayyohlar oqimi yuqori hisoblanadi. Mamlakatga dam olish maqsadida keluvchi sayyohlar soni bo'yicha ikkinchi o'rinda ekanini ko'rishimiz mumkin, hamda qolgan turizm maqsadlari ham sezilarli darajada mamlakat turizmiga ta'siri borligini anglash mumkin.

Tahlildan kelib chiqadiki mamlakatga xorijlik sayyohlar oqimini yanada yaxshilash maqsadida marketing strategiyasini tanlashda asosan turizm bozorining dam olish hamda ziyorat turizmi qismiga e'tiborni qaratish muhim va samaraliroq hisoblanadi. Ammo bozor muvozanatini saqlash uchun xizmat, tibbiyot, tijorat maqsadlarida tashrif buyuruvchi sayyohlar oqimin oshirish uchun alohida uzoq


⁴ Turistik tashkilotlar va statistik ma'lumotlarga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵ Turizm va madaniy me'ros vazirligi ochiq ma'lumolarga asosan muallif tomonidan tayyorlandi



muddatli maqsadli strategiya tanlash maqsadga muvofiq.

Turizm yaqqol namoyon bo'luvchi mavsumiy tavsifga ega. Bu turistik oqimlarni asosiy mavsum, mavsumlar oralig'i, oylar va fasllar bo'yicha tahlil qilishni ko'zda tutadi. O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy me'ros vazirligi hisobotlariga ko'ra joriy 2022-yilning yarim yillik ko'rsatkichlari 1876232 nafar xorijiy turistlar tashrifi qayd etilganini ko'rsatmoqda.



2-rasm: 2022-yil birinchi yarmida mamlakatga kelgan turistlarning solishtirma nisbati⁶

Bundan 84% sayyohlar qo'shni davlatlar aholisi ekanligini ko'rish mumkin. Uzoq xorijlik sayyohlar esa 5% qismini tashkil etmoqda. Bu ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, turizm sohasida xorijlik tashrifchilarning qiziqishlarini yuzaga keltirish darajasini uzoq masofalarga yetib borishini ta'minlash maqsadga muvofiq. Bunda chora-tadbirlarni qo'llashda strategik marketing uslublaridan to'g'ri va samarali foydalanish hamda bu orqali potensial va maqsadli mijozlarni jalb qilish mumkin. O'zbekiston hududida mavjud shart-sharoitlarni va e'tiborga molik xizmatlar sohasini ochiq ko'rsatib bera olish vazifasi ma'lum darajada quyidagi omillarga muhtoj:

- **Tarixiy turizm ziyoratini reallik bilan bog'lash.** Ya'ni restavratsiya va reklama bilan cheklanib qolmay, odamlar ongida qiziqish uyg'otuvchi manbalar, masalan tarixiy filmlarni xalqaro darajada va hamkorlik asosida real tarix asosida ko'rsatib bera olish. Qiziqishlarga hududlar kesimida oshirishga e'tibor qaratish.
- **Tajribali marketing momentlarini yaratish.** Tashrif buyuruvchilar e'tiborini tortishda takror talab qilinuvchi vaziyatlar yaratish, masalan, tarixiy muzeylar qoshida eksponatlar ruhini gavdalandiruvchi bo'lim tashkil etish, ularning tarixini effektiv ravishda ochib berish (teatr sohasi bundan mustasno, yuqoridagi vazifa zerikarlik darajasini kamaytirishga yo'naltirilgan)
- **Diqqatga sazovor bo'lmagan hududlarni diqqatga sazovor etishga yo'naltirilgan chora tadbirlar.** Marketingning oltin qoidasi: "Ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish emas, balki sotiladigan mahsulot ishlab chiqarish.
- **Yillik tadbirlar va festivallar sonini oshirish.** Kimlargadir qiziqish yuzasidan sayohat qilish bo'lsa, yana boshqa turdagi odamlarga adrenalin beruvchi auditoriya muhim. Bu maqsadli auditoriyadir, va ularning ehtiyojlarini qondiruvchi tadbirlar e'tibordan chetda qolmaydi.
- **Muhrlash.** Jalb qiluvchi va ko'z kamerasida qoluvchi kreativ foto va videolarni odamlar ongida muhrlash. Mashhur saytlar va reklama orqali keng qamrovli tarqatish.
- **Demarketing uslublarini qo'llash.** Meros turizmining eng katta jumbog'i shundaki, ko'plab tarixiy joylar mo'rt. Mo'rt eksponatlar ko'p odamlar to'lasiga bardosh bera olmaydi. Demarketingni yo'lga qo'yishning samarali usullaridan biri kirish to'lovlarini oshirishdir, bu usul ba'zi hollarda yaxshi ishlashi isbotlangan. Ko'proq to'lov olish kirish ulushini oshiradi, ammo qiziqarlisi, tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, muzeylarga tashrif buyurish uchun pul to'laydigan (yoki ko'proq pul to'laydigan) tashrif buyuruvchilar ham sayt ichidagi do'kon va kafelarda pul sarflashlari mumkin.

Tadqiqot natijalaridan ma'lum bo'ladiki turizm sohasi sayyohlarning ehtiyojlarini qondirishga

⁶ Turizm va madaniy me'ros vazirligi ochiq ma'lumotlariga asosan muallif tomonidan tayyorlandi.



yo'naltirilgan ko'p qirrali funksional tuzilmaga ega murakkab tizim hisoblanadi, shuningdek, xizmat ko'rsatishda foydalaniladigan o'ziga xos shakl va usullarni qamrab oladi;

- Turizm bozorida turistlar uchun o'ziga xos bo'lgan turistik mahsulot taklif etiladi. Turistik mahsulot kompleks tavsifga ega bo'lib, sayoochat davomida vujudga keladigan talabni qondirish uchun zaruriy xizmatlarning "paketi" shaklida namoyon milliy qadriyatlarni saqlash va rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarini oshirish, ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimini yuqori darajaga ko'tarish, aholi salomatligini mustahkamlash, aholi madaniyatini oshirish, o'rta sinfni shakllanishi va mustahkamlanishi, aholini turistik xizmatlarga bo'lgan talabini qondirish, mavjud tabiiy-tarixiy yodgorliklarni saqlash, o'rganish, hududlar o'rtasidagi ijtimoiy rivojlanishdagi farqlarni kamaytirish, yangi ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish bo'ladi;
- Turizm sohasining moddiy ishlab chiqarishdan asosiy farqi, turistik xizmatlarni ko'rsatish bo'yicha pirovard natijalarga erishish bevosita iste'molchining ishtirokida yuzaga kelishi hamda iste'mol jarayonining bevosita turistik resurslar mavjud joyda amalga oshirilishi hisoblanadi;
- Turistik xizmatlarga bo'lgan talabning bozor kon'yunkturasiga nisbatan ijtimoiy-iqtisodiy muhit o'zgarishiga yuqori ta'sirchanlikka ega ekanligi. Bunda turizm sohasida ko'rsatiladigan xizmatlar xavfsizligi o'ziga xos ahamiyatga ega bo'ladi.

Turizm industriyasi subektlari faoliyati uchun qulay shart-sharoitlarni shakllantirishga yo'naltirilgan turizm faoliyati sohasidagi qonun hujjatlarini va normativ-huquqiy baza shakllanmoqda. Turizmning rivojlanishidagi barcha to'siq va g'ovlarga barham berish, viza va ro'yxatdan o'tkazish tartib-taomillarini, pasport va bojxona nazoratini soddalashtirish, turizm sohasini davlat tomonidan boshqarish va bozorga xos tarzda tartibga solish mexanizmini maqbullashtirilmoqda. (хулосага ёзганиз яхши)

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hozirgi zamonaviy sharoitlarda turizm xizmatlari bozori faoliyatini kengaytirish, hududiy sayyohlik tizimlari, jumladan turistik klasterlar, turizmga ixtisoslashgan erkin hududlar faoliyatini yo'lga qo'yish va rivojlantirish obyektiv ahamiyat kasb etgan masalalar qatoriga kirdi. Xorijiy turizm bozorlarida mamlakat turizm salohiyatini targ'ib qilish uchun bazi bir asosiy chora-tadbirlarni belgilab olish zarur hisoblanadi, va bularni quyidagicha ifodalash mumkin:

1. Mamlakatni sayohat uchun xavfsiz mamlakat sifatida e'lon qilish;
2. Maqsadli bozorlarda marketing tadqiqotlarini olib borish va pandemiyadan so'ng, davlatlar kesimida turizm marketing strategiyasini ishlab chiqish;
3. Xorijiy mamlakatlarda xalqaro turizm ko'rgazma va yarmakalarda milliy stend bilan ishtirok etish;
4. Mamlakatning diplomatik vakolatxonalari va vatandoshlar ko'magida dunyo miqyosida "O'zbekiston kunlari" promo aksiyasini muntazam tashkil qilish;
5. Tomoshabinlar qamrovi keng bo'lgan ommabop blogger, vlogerlar hamda inflyuenserlar uchun mamlakat bo'ylab infoturlar tashkil qilish;
6. Mamlakat hududlarida tematik turistik zonalar va klasterlarni yaratish;
7. Yangi turizm yo'nalishlari va mahsulotlarini taqdim qilish.
8. Hududlarning turizm salohiyatiga oid targ'ibot materiallarini tayyorlagan holda ommaviy axborot vositalarida yoritish va infoturlar tashkil qilish.
9. Turistik tashkilotlar tomonidan mazkur yo'nalishdagi xorijlik va mahalliy sayyohlar sayohatini tashkil qilganlik uchun rag'batlantirish choralari hamda uning mexanizmlarini ishlab chiqish.

Mamlakatda turizmni barqaror rivojlantirish milliy iqtisodiyotni mustahkamlashga, turizmning zamonaviy yo'nalishlarini yaratishga, turizm infratuzilmasiga davlat ta'sirining boshqaruvini kuchaytirishga, aholining turmush darajasi va farovonligini oshirishga, ekologik xavfsizlikni ta'minlashga,



tarixiy hamda madaniy yodgorliklarni saqlab qolishga, tabiatni muhofaza qilish faoliyatining darajasini oshirishga, jamiyatning ma'naviy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'xati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-5841063>
2. Shavkat Mirziyoyevning 2020-yil 28-yanvardagi "Turizmni rivojlantirish, jismoniy tarbiya va sportni yanada ommalash-tirish masalalari bo'yicha yig'ilish" maruzasi.
3. Ergashxodjayeva Sh. D., Samadov A. N., Sharipov I. B. Marketing. Darslik. –Toshkent-Iqtisodiyot, 2013.–346 b.
4. Ergashxodjayeva Sh. D., Qosimova M. S., Yusupov M. A. Marketing. Darslik.–Toshkent-Iqtisodiyot 2018–314 b.
5. Mirzayev M. A., Aliyeva M. T. Turizm asoslari. O'quv qo'llanma.–T.: O'zbekiston faylasuflar jamiyati, 2011.
6. Tourism marketing: 12 strategies for success with examples. ProfileTree.com.
7. www.uzbektourism.uz – O'zbekiston Respublikasi turizm va madaniy me'ros vazirligi rasmiy sayti.



MUNDARIJA

1-ШУЪБА

ЎЗБЕКИСТОНДА SMART-ТУРИЗМНИ ЗАМОНАВИЙ ПРИНЦИПЛАРИ АСОСИДА РИВОЖЛАНТИРИШ ВА БУНДА ХОРИЖ ТАЖРИБАСИДАН ФОЙДАЛАНИШ

Ўзбекистонда Smart-туризмни ривожлантириш истиқболлари.....	5
Конгратбай Авезимбетович Шарипов	
Рақамли инновацион технологиялардан туризмда самарали фойдаланиш йўллари	7
Эшов Мансур Пулатович	
Туристтик кластерларнинг технологик платформасини ишлаб чиқиш.....	10
Абдурахмонова Гулнора Каландаровна	
Tourism Development in Uzbekistan: Comprehensive Analysis of Current Trends and Future Prospects	13
Zufarova Nozima Gulamiddinovna	
Қорақалпоғистон Республикасида туризм соҳасининг янги йўналишларини ташкил этиш имкониятлари	17
Эштаев Алишер Абдуғаниевич, Хошимов Баҳром Баҳадирович	
Ўзбекистонда тоғ туризмнинг ривожлантириш йўналишлари	20
Ахмедов Икром Акрамович	
Туристтик-рекреацион ресурслари юқори бўлган минтақаларда кластерларни ташкил қилиш механизмлари	24
Норчаев Асатулло Норбўтаевич	
Развития smart туризм в Узбекистане	28
Алиева М. Т.	
Smart Tourism Analysis and Future Trends.....	31
Safaeva Sayyora	
Opportunities for Developing Smart Tourism and Foreign Experience in Uzbekistan	34
Kabilova N. Sh.	
O'zbekiston turizmida XXI bozori va bunda Smart-turizmning o'rni.....	37
Mirzayev Temur	
Смарт-туризм: зарубежный опыт и перспективы его применения в Узбекистане.....	42
Хушназарова М. Г.	
Development of Smart Tourism in Uzbekistan	45
Narzullaeva Umidakhon, Abzalova Nozima	
O'zbekistonda turizm xizmatlari sohasining aholi bandligiga multiplikativ ta'siri	48
To'rabekov Sohibjon Sherboy o'g'li	
Smart-turizmni xorijiy tajribalar asosida rivojlantirish istiqbollari.....	53
Isroilov Xusanboy Ibrohimjon o'g'li, Nishonboyev Doniyor Erkinjon o'g'li	
Smart-turizm: xorijiy tajriba va uni O'zbekistonda qo'llash istiqbollari.....	55
Ulugboyeva Ezozahon Inomjanovna	
O'zbekistonning Smart-turizm salohiyatini jahon turizm bozorida targ'ib qilishning zamonaviy marketing strategiyalari.....	58
Fayyoz Ahmedova Rashidovna	

Modern Trends in the Development of Tourism and the Experience of Foreign Countries in the Application of Smart Innovations in Personnel Training.....	62
Iskandarova Nargiza Mashrabjonovna	
The Main Role of Smart – Tourism in Modern XXI Century Uzbekistan as an Example.....	65
Narzullayeva Fariza Akmalevna, Saydaliyeva Feruza Bakhtiyorovna	
How Does Smart Tourism Support Sustainable Tourism Development: the Case of Uzbekistan	67
Khusniddin Egamnazarov	
Appearances, Classification and Application of Smart Tourism.....	70
Akhmadjanova Mukhtasarkhan Anvar qizi, Sharifboyeva Fazilatxon Odilbek qizi, Dadamirzayev Sarvarbek Ulug‘bek o‘g‘li	
Фарғона водийсининг қишлоқ аҳоли пунктларида агротуризмни ривожлантиришнинг стратегик режасини ва смарт-технология концепциясини ишлаб чиқиш бўйича услубий ёндашувлар.....	74
Жумабаева Дилафруз Тожиidinovna	
Butun jahon Smart-turizmi bozorining rivojlanish xususiyatlari.....	78
Ravshanov To‘yli Gulmurodovich	
Основные тенденции развития смарт туризма в условиях цифровой экономики в Республике Узбекистан.....	81
Салиева Екатерина Сергеевна	
Развитие Смарт-туризма в Узбекистане на основе современных принципов и использования зарубежного опыта.....	84
Ахмеджанова Ирада Усмановна, Халилова Нодира Абдухамид қизи	
Будущая роль Смарт-туризма на мировом туристическом рынке.....	88
Уралова Матлюба Ахоровна	
Проблемы и перспективы развития Smart-туризма в Узбекистане.....	95
Очилова Хилола Фармоновна, Раимова Севара Ойбековна	
Перспективы развития Смарт-туризма в Республике Узбекистан на основе современных технологий и использования зарубежного опыта.....	102
Рустамов Абдор Равшан угли	
Перспективы развития зелёного смарт туризма в Республики Узбекистан.....	106
Расулова Нигора Юсуповна	
Перспективы развития смарт туризма в Узбекистане на основе современных принципов	110
Рахимова Дилфуза Мирзакасимовна	
Перспективные направления развития смарт туризма в Узбекистане	113
Гузал Шеровна Хонкелдиева	
Развитие культурного Смарт-туризма в Узбекистане, с использованием опыта зарубежной компании «POLYMEDIA»	116
Караева Алёна Викторовна	
Turistik xizmatlar bozorini shakllantirishning rekreatsion dinamikasi.....	118
Bahrieva Zarina Nasimovna	

2-ШУЪБА

SMART-ТУРИЗМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ АСОСИЙ ХУСУСИЯТЛАРИ

Main Features of Smart Tourism Organization	121
Narzullaeva Umidakhon	
The Role Smart-City Infrastructure in the Tourism and Architecture	124
Mukhlisa Akromova Saydimukhtor qizi	
The Main Components of the Development of “Smart” Tourism in the Region	130
Agzamova Nargiza Gapurovna	



Туризм соҳасида рақамли технологиялар орқали смарт туризмни ташкил этишнинг асосий хусусиятлари	135
Ҳамдамов Амриддин Ҳамдам ўғли	
Минтақа туризмни ривожлантиришда хизмат кўрсатиш корхоналарининг smart-ахборот моделлари асосида ривожланиши	140
Ш.Х.Мухитдинов	
Analysis of Cases of Use of Smart Technologies in Tourism and Hotel Enterprises.....	146
Hamidova Muxtasarxon Iqboljon qizi, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li	
Tarixiy shaharlarda turizmni rivojlanishida raqamli texnologiyalarning o'rni.....	152
Ro'zibayeva Zulayho Baxrombek qizi	
Turizm sohasi rivojlanishida Smart-turizmning o'rni	159
Dadamuxamedova Mushtariy Maxmudjon qizi	
Mamlakatimizda turizm sohasini raqamlashtirish va boshqarishni takomillashtirish	162
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li	
Development of Smart Tourism in Uzbekistan Based on Modern Principles and Using Foreign Experience.....	165
Gulrukh Yusupova, Nilufarkhon Ashuralieva	
Jizzax viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida turizmning ahamiyati va roli: yangicha Smart yo'nalishlar va mexanizmlar	168
Aynakulov Muxitdin Abduxamidovich	
The Role of Smart Technologies in the Development of Agrotourism	172
Yoriyeva Farangiz Murodilloyevna	
Turizmning rivojlanishini barqarorlashtirishda prognozlashning mohiyati va obyekti.....	175
Axmadjanova Muxtasarxon Anvar qizi, Dadamirzayev Sarvarbek Ulug'bek o'gli, Sharifboyeva Fazilat Odilbek qizi	
The Main Trends in the Development of Digital Tourism in Uzbekistan.....	181
Ismailova Sayyora Ulugbekovna	
Jahon ziyorat turizmi obyektlarining turizm rivojlanishiga ta'siri.....	186
Karimova Maftuna Komiljon qizi	
The Future of Smart Tourism: Transforming Travel Experiences	191
Oppokkhonov Nurmukhammad	
Sayyohlik yo'nalishlariga tashrif buyuruvchilar uchun aqlli texnologiyalarning ahamiyati	193
To'xtayeva Xurshida Farhodovna	
O'zbekistonda Smart-turizmni rivojlantirish choralari.....	200
Raximova Dilfuza Mirzakasimovna	
Exploring Smart Tourism: Lessons From Abroad and Opportunities for Uzbekistan	206
Nasiba Mukhtorova, Zohid Askarov, Angelo Battaglia	
Smart Tourism: Pros, Cons and Potential Future Development	215
Baratov Asadbek	
Turistik destinatsiyalarni boshqarish orqali turistik mintaqalarni rivojlantirish.....	218
Toirova Nozima Miraxmad qizi	
Основные компоненты развития смарт туризма в Ташкентском регионе: перспективы и вызовы	223
Зиёвиддинова Тарона Ойбек кизи	
Инновационные тенденции применения умных технологий в развитии туризма и гостиничного бизнеса.....	226
Мусаева Сайёра Абдивахитовна	
Цифровизация как важнейший двигатель индустрии туризма.....	234
Абидова Д.	



Путешествие будущего: формирование и инновационное развитие направления Смарт-туризм	239
Курашева Валерия Олеговна, Ивонина Наталья Викторовна	
Основные особенности организации смарт-агротуризма в Узбекистане.....	241
Анваров Нодир Аллаёрович	

3-ШУЪБА

ЎЗБЕКИСТОННИНГ SMART-ТУРИЗМ САЛОҲИЯТИНИ ЖАҲОН ТУРИЗМ БОЗОРИДА ТАРҒИБ ҚИЛИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ МАРКЕТИНГ СТРАТЕГИЯЛАРИ

Enhancing Marketing Strategy for the Development of Mountain Tourism.....	255
Mavlanov Golibjon Mahammad o'g'li	
Smart Destination Management: Challenges and Practices	258
Nurmukhammad Oppokkxonov	
O'zbekistonda qishloq turizmining shakllanish va rivojlanishi.....	260
Usmonov Sardor	
Фарғона водийсида туризм соҳасини ривожлантиришнинг ҳудудий дифференциал хусусиятлари	263
Максумов Азизхон Нодиржон ўғли	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishning jahon tajribasi muammo va istiqbollar	268
Aynaqulov Xusniddin Abduxamidovich, Teshayeva Farida Shuxrat qizi	
Hududlarda Smart-turizmni rivojlantirishda xorij tajribasini qo'llash istiqbollari.....	271
Islomova Dilrabo Salomovna	
Consideration of Positive and Negative Impacts of Smart Tourism on Destination Branding, Case of Uzbekistan	274
Ms. Yulduz Yakubova	
Analysis of the State of Use of Smart Technology in Hotels.....	276
Uralova Dilbar Anorbayevna, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li	
Turizm sohasi orqali aholi bandligini ta'minlash yo'llari	281
Matkabulova Dilorom Xalilullayevna	
Smart-turizmni tashkil etishning asosiy xususiyatlari	284
Uralova Matlyuba Axrorovna	
O'zbekistonning iqtisodiy rivojlanishida turizm sohasining o'rni.....	286
Matchanov Azizbek Umirbek o'g'li	
Mehmonxona xo'jaligida yashil texnologiyalarni joriy qilish.....	289
Xakimova Nargiza Axadjon qizi	
Mamlakatimizda Smart-turizmni rivojlantirish masalalari va iqtisodiyotda tutgan o'rni.....	293
Xomidov Mirodiljon Xasanboy o'g'li, Nishonboyev Doniyor Erkinjon o'g'li	
Dam olish turizmida Smart parklarning o'rni	295
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Rekreatsiya turizmni rivojlantirishda Smart texnologiyalardan foydalanish	297
Shaymanova Nigora Yusupovna	
Smart Tourism: Foreign Experience and Prospects for Its Application in Uzbekistan.....	299
Avezova Nilufar	
Использование BIG DATA и AI для реинвентаризации маркетинга туризма в Узбекистане: новые перспективы в глобальной конкуренции.....	304
Турабекова Фарангиз Наримонбек кизи	
Проблема в смарт туризме	310
Аскаралиева Муштарий Баходировна	



Смарт туризм в Узбекистане: новые подходы и современные решения	313
Узганбаева Дилноза Тохтасиновна	
Смарт туризм в Узбекистане: новые возможности и вызовы.....	315
Бекмурадова Лайло Турсунмаматовна	
Влияние цифровых технологий на развитие туристского рынка в Узбекистане	323
Мустаева Шохида Саъдуллаевна	

4-ШУЪБА

ТУРИЗМ ВА ТАЪЛИМ: ШАРТ-ШАРОИТИ ВА ИСТИҚБОЛЛАРИ

Таълим туризми тушунчаси моҳияти ва уни ривожлантиришнинг хориж тажрибалари	327
Саъдуллаева Гулноза Содиқ қизи	
Toshkent viloyatida agroturizm obyektlarini rivojlantirish va kadrlar salohiyatini oshirish istiqbollari.....	330
Jo'rayeva Nargiza Abduvohidovna	
Smart-turizm faoliyatini boshqarish jarayoniga yondashuvlar	337
Mirzayev Abdullajon Topilovich	
Ilmiy faoliyani rivojlantirishda ta'lim tashkilotlaridan maqsadli foydalanish.....	341
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li	
Turistik xizmatlarning reklamasini amalga oshirishda ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati	349
O. A. Norbo'tayev	
Ta'lim turizmining mohiyati va uni O'zbekistonda rivojlantirish imkoniyatlari.....	351
Jiyanov Uktam Panjievich	
Smart Tourism and Education: Conditions and Prospects in Uzbekistan	354
Gulrukh Yusupova, Sabina Turakulova	
Uzbekistan: Theory and Practice of Personnel Training for Tourism.....	361
Ochilova Hilola Farmonovna	
Marketing strategiyalarini qo'llash orqali mamlakat turizm bozorini rivojlantirish istiqbollari	365
Nurfayzieva Moxinur Zayniddinovna	
Turistik mahsulotlar shakllanishi bo'yicha nazariy yondashuvlar va narxlar tahlili	372
Imomov Sanjar Muxammadievich	
Mehmonxona sohasida Big Data texnologiyalarini qo'llash	376
Shermakhmadova Zarina Shavkat qizi	
Promoting Environmental Entrepreneurship And Innovation in a Green Economy.....	379
Embergenova Anjim Aydosbaevna	
Turizm xizmatlari eksportini oshirishda innovatsion marketing va raqamli texnologilayar ta'siri	381
Bakhromov Akmal Abduvahid o'g'li	
Samarali marketing strategiyalari orqali O'zbekistonni raqobatbardosh turizm yo'nalishi sifatida jonlantirish	385
Xusniddinova Munavvar Sur'at qizi	
O'zbekistonda Smart-turizmni zamonaviy prinsiplari asosida rivojlantirish va bunda xorij tajribasidan foydalanish.....	388
Tojiboyev Toxirjon Zoxirjon o'g'li	
Mehmonxona va xizmatlar bozorini takomillashtirish, mehmonxonalarda smart mehmonxona xizmatlarning tizimini joriy qilish	391
Mansurov Zokir Xusanovich	



Туризмни қўллаб-қувватлаш жамғармасининг соҳа ривожини молиялаштиришдаги аҳамияти.....	394
Примова Нигора Икром қизи	
Turizm – dunyo madaniyatiga ko‘prik.....	397
Abdullayeva Nilufar Sultanbayevna	
Key Features of Digital Advertising Development in Tourism in Uzbekistan.....	399
Mirziyo Sodikov Odiljon ogli	
Xizmat ko‘rsatish tarmoqlarida turizm va bank xizmatlarini bog‘liqliklari.....	404
Xakimov Zoxid Norbo‘tayeich	
Innovative Management in Smart Tourism: a Digital Economy Imperative for Tourist Enterprises.....	406
Mamanov Mukhammadamin	
The Role of The Capacity of Service Personnel in the Organization of the Quality Service Process in Hotel Enterprises.....	409
Rakhmonova Nigina Anvarovna	
Развитие умного туризма – перспектива кадров в сфере туризма.....	412
Бухарова Нигора Газиёвна	
Состояние гостиничного бизнеса в Самарканде и важность его развития	415
Мардонова Дилрабо Ширинбоевна	
Организационно-экономический механизм развития туристических комплексов.....	418
Хомидов Қаххорали Қурбонали ўғли	

5-ШУЎБА

ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Қорақалпоғистон Республикасида туризмни ривожлантириш имкониятлари.....	422
Эштаев Алишер Абдуганиевич, Маткаримов Жаҳонгир	
Вопросы развития Smart-туризма в Республике Каракалпакистан	425
Абдувахидов Абдумалик Махкамович	
Qoraqalpog‘istonning o‘ziga xos madaniy va tarixiy merosi.....	427
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
O‘zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish istiqbollari.....	429
Matkbulova Dilorom, Abdug‘aniyev Toxirjon	
Соғломлаштириш туризми фаолиятини бошқаришда туристик кластерларни шакллантириш механизмларини баҳолаш.....	432
Ғофуров Азизбек Умаржонович	
Qoraqalpog‘iston Respublikasining o‘ziga xos ekologik merosi.....	435
Xoshimov Baxrom Baxadirovich	
Qoraqalpoq o‘lkasi turizm istiqbollari.....	437
Dehqonov Burxon Rustamovich	
Implementing Smart Tourism Strategies in Karakalpakstan.....	439
Mukhanov Murod Mukhan ugli	
Qoraqalpog‘iston Respublikasi turizm sektoridagi integratsiyaning nazariy asoslari.....	442
Xalimova Fayyoz Nafasovna	
Qoraqalpoqiston Respublikasida turizmni rivojlanish yo‘llari	445
Xushnazarova Maxzuna Gulamjonovna	
Turistik hududlarda turizmning barqaror rivojlanish konsepsiyalariga yondashuvlar	452
A. Asraqulov	



Минтақада туризм соҳасини бошқаришнинг ўзига хос хусусияти	455
Ембергенова Анжим Айдосбаевна	
Perspectives for the Further Development of Smart Tourism in Uzbekistan	460
Akhunova Shokhistakhon Nomanjanovna, Askarov Farhod Rakhmatovich	
Қорақалпоғистон Республикаси ички туризм йўналишлари.....	465
Норчаев Н. А.	
Qoraqalpog'iston Respublikasida turizmni rivojlantirish tendensiyalari	467
Islamova Qunduzxon Ikromboy qizi	
Тенденции развития Смарт-туризма в Республике Каракалпакстан	469
Очилова Х. Ф., Нагметуллаев А. А.	
Тенденции развития зеленого туризма в Республике Каракалпакстан.....	472
Расулова Нигора Юсуповна	
Перспективы развития смарт туризма в Республике Каракалпакстан.....	475
Косбергенова Нурзия Кудайбергеновна	
Role of social media in promoting Sustainable Tourism in Uzbekistan	477
Ms. Nigina Kurbonova, Dr. Shalki	
Jahonda ta'lim turizmining rivojlanish tendensiyalari	487
Uktam Jiyanov, Maksudova Shahlo	
Hududiy turizm rivojlanishining iqtisodiy samaradorligini oshrishda "Smart-turizm" xizmatlaridan maqsadli foydalanish.....	490
Dustmurodov Orifjon Ismatilloevich	
The role of tourism industry in the country's economy	497
Gofurova Vasila Odiljon qizi	
Tourism Impacts GDP Growth (and Decline).....	500
Gofurova Vasila Odiljon qizi	
Smart turizm texnologiyalarining sayyohlarning xatti-harakatlari, sayohatdan qoniqishlari va baxtli his qilishlariga ta'siri	503
Munajat Isakdjanova Inog'omovna	
Sayohat va turizm rivojlanish indeksi	507
Raxmonova Nilufar Yorqinovna	
O'zbekistonda smart turizmni rivojlantirish imkoniyatlari	512
Kamoliddin Jahongirov	
Xalqaro turizm bozorida ta'lim turizmining o'rni va rivojlanish xususiyatlari	514
Ominaxon Ababaxriyeva, Kamoliddin Jahongirov	
Functional composition of irrealis	517
Ochilova Noila Farmonovna	
Turizmga innovatsiyon texnologiyalarni joriy qilish mohiyati	519
Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li	
Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyotida zamonaviy logistika tizimlari mohiyati	521
Xasanov Sarvar Ulug'bek o'g'li	
Using Innovative Technologies in Hotels as a Factor of Sustainable Development of Tourism Industry	524
Sayfutdinov Shuxratjon Sultonovich, Egamberdiyev Sirojiddin Sattor o'g'li	

Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. Maxsus son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot”
jurnali

O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro‘yxatdan
o‘tkazilgan.